

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

THE FORMATION AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF BIOETHICS IN UZBEKISTAN

Utegenova Jamila Djolmurzayevna

Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Abstract. The article discusses the formation and philosophical foundations of bioethics, the development of bioethics in Uzbekistan. It also highlights the essence of the processes of strengthening the legal framework of bioethical norms, developing a bioethical culture in the public consciousness, and philosophically developing bioethics based on the harmony of humanity, justice, responsibility, and national values.

Keywords: bioethics, bioethical norm, development of bioethics, philosophical essence of bioethics, justice, responsibility, national values.

O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI

Utegenova Jamila Djolmurzayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada bioetikaning shakllanishi va falsafiy asoslari, O'zbekistonda bioetikaning rivoji haqidagi masala muhokama qilinadi. Shuningdek, bioetik me'yorlarning huquqiy bazasini mustahkamlash, jamoatchilik ongida bioetik madaniyatni rivojlantirish, falsafiy jihatdan bioetika rivoji insonparvarlik, adolat, mas'uliyat va milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida olib borilishi kabi jarayonlar mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bioetika, bioetik me'yor, bioetika rivoji, bioetikaning falsafiy mohiyati, adolat, mas'uliyat, milliy qadriyatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N13>

Kirish. Globallashuv sharoitida bioetikaning rivojlanishi zamonaviy falsafaning eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi fan va texnologiyalarning mislsiz darajada tez rivojlanishi, ilmiy bilimlarning hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, tibbiyot, genetika, biotexnologiya, sun'iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson hayotining tabiiy chegaralarini kengaytirib, uning biologik mavjudligi ustidan ongli ravishda ta'sir ko'rsatish imkonini bermoqda. Bu holat bir tomondan inson hayotining sifatini oshirish, kasalliklarni davolash, umr davomiyligini uzaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan inson sha'ni, qadr-qimmat, hayotning daxlsizligi va axloqiy mas'uliyat bilan bog'liq murakkab falsafiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

O'zbekistonda bioetika rivoji mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, huquqiy va ma'naviy islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Inson huquqlari, shaxs erkinligi, sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan va ta'limni rivojlantirish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi bioetika tamoyillarining

shakllanishiga muhim zamin yaratdi. Bioetika O'zbekistonda dastlab tibbiy etika va kasbiy axloq me'yorlari doirasida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u mustaqil falsafiy va fanlararo yo'nalish sifatida shakllana boshladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson hayoti, sha'ni va qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi bioetikaning asosiy falsafiy va huquqiy poydevorini tashkil etadi. Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklariga doir moddalarida shaxsning daxlsizligi, tibbiy yordam olish huquqi, shaxsiy hayotning himoyalanihi kabi tamoyillar mustahkamlangan. Bu holat bioetik tamoyillarning milliy huquqiy tizimga singib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonida bemor huquqlarini himoya qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarda axloqiy tamoyillarni mustahkamlash, uning falsafiy masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, tibbiy xizmat ko'rsatish standartlari va klinik protokollarda bemorning roziligi, tibbiy sirni saqlash, shaxsiy hayot daxlsizligi kabi bioetik tamoyillar mustahkamlangan. Bioetikaning shakllanishida tibbiy ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Tibbiyot institutlari va universitetlarida "Tibbiy etika", "Deontologiya", "Bioetika" fanlarining joriy etilishi kelajak shifokorlarida kasbiy mas'uliyat va axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon bioetikaning faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy, falsafiy ahamiyatga ega fan sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

Muhokama. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda axloqiy nazorat mexanizmlarining shakllanib borishi ham bioetika rivojining muhim ko'rsatkichidir. Klinik tadqiqotlarni baholovchi etik qo'mitalar faoliyati ilmiy tajribalarda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu qo'mitalar bioetik ekspertiza institutining milliy darajada shakllanayotganidan dalolat beradi.

Bioetika rivojiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri milliy madaniyat va diniy-axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. O'zbek jamiyatida inson hayoti, sog'lig'i, oilaviy qadriyatlar va mehr-shafqat tushunchalari alohida ahamiyatga ega. Islom axloqida hayot muqaddas ne'mat sifatida talqin qilinadi, inson tanasi esa Allohning omonati hisoblanadi. Bu qarashlar bioetikaning asosiy tamoyillari bilan uyg'unlashadi va uning milliy xususiyatlarini belgilab beradi.

O'zbekistonda bioetika rivoji global jarayonlardan uzilgan holda emas, balki xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilmoqda. Respublikada Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, UNESCO va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikda sog'liqni saqlash, tibbiy tadqiqotlar va ta'lim sohasida bioetik me'yorlarni joriy etish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu holat bioetikaning milliy va global darajadagi uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. [2,3].

Shu bilan birga, O'zbekistonda bioetika rivoji hali to'liq shakllangan, mukammal tizim darajasiga yetdi, deb bo'lmaydi. Bioetik me'yorlarning huquqiy bazasini mustahkamlash, bioetika bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, jamoatchilik ongida bioetik madaniyatni rivojlantirish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Falsafiy jihatdan bioetika rivoji insonparvarlik, adolat, mas'uliyat va milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida olib borilishi lozim. Bioetika faqat tashqi modellarning ko'chirilishi emas, balki milliy madaniyat va axloqiy an'analarga tayangan holda shakllangan mustaqil tizim bo'lishi zarur.

Ta'kidlab aytganda, O'zbekistonda bioetikaning shakllanishi huquqiy islohotlar, tibbiy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq murakkab jarayondir.

Bioetika respublikada inson hayoti va qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim falsafiy va ijtimoiy mexanizm sifatida tobora mustahkamlanib bormoqda. Bioetika rivojining muhim jihatlaridan biri sog'liqni saqlash tizimida insonparvarlik tamoyillarining tobora mustahkamlanib borishidir. Oxirgi yillarda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bemor manfaatlarini ustuvor qo'yish, tibbiy xizmatlarning shaffofligi va sifatini oshirish masalalari davlat siyosati darajasida ko'tarildi. Bu jarayonda bioetik tamoyillar — avtonomiya, zarar yetkazmaslik, manfaat keltirish va adolat tamoyillari amaliyotda tobora ko'proq namoyon bo'la boshladi. Bemorning ongli roziligini olish amaliyotining kengayishi bioetikaning muhim ko'rsatkichidir. Oldingi davrlarda shifokor paternalistik pozitsiyada bo'lib, ko'pincha qarorlarni bemor o'rniga qabul qilgan bo'lsa, hozirgi davrda bemor shaxs sifatida qaralib, uning qarori hurmat qilinmoqda. Bu holat O'zbekistonda shaxs avtonomiyasiga asoslangan bioetik madaniyat shakllanayotganini ko'rsatadi. Tibbiy sirni saqlash masalasi ham bioetikaning muhim tarkibiy qismi sifatida mustahkamlanib bormoqda. Bemorning tashxisi, davolash jarayoni va shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishi, uchinchi shaxslarga bemorning roziligisiz oshkor qilinmasligi zarurligi qonuniy va axloqiy jihatdan e'tirof etilmoqda. Bu tamoyil shaxsiy hayot daxlsizligi va inson sha'ni hurmat qilinishining ifodasidir. [4,5].

Bioetikaning huquqiy asoslari doirasida reproduktiv salomatlik masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Reprodukativ texnologiyalar, prenatal diagnostika, perinatal tibbiyot masalalarida bioetik yondashuvni shakllantirish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayonda inson hayotining boshlanishi, embrionning maqomi, ona va bola huquqlari o'rtasidagi muvozanat kabi masalalar chuqur falsafiy va axloqiy tahlilni talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda klinik tadqiqotlar olib borishda etik ekspertiza tizimini mustahkamlash muhim vazifalardan biridir. Xalqaro amaliyotga muvofiq, klinik sinovlar faqat mustaqil etik qo'mitalar tomonidan tasdiqlangandan keyingina amalga oshirilishi kerak. Bu tizim inson ustida olib boriladigan ilmiy tajribalarni axloqiy nazorat ostiga olishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham bu borada muayyan qadamlar qo'yilmoqda, biroq etik qo'mitalarning faoliyatini yanada mustahkamlash, ularning mustaqilligini ta'minlash va professional darajasini oshirish zarur.

Bioetika rivojining yana bir muhim yo'nalishi — tibbiy xodimlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishdir. Shifokor va hamshiralar faqat texnik bilimga emas, balki yuqori darajadagi axloqiy madaniyatga ham ega bo'lishlari lozim. O'zbekistonda tibbiy ta'lim muassasalarida bioetika va deontologiya fanlarining o'qitilishi ana shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Bioetika fanining mazmunini milliy madaniyat, an'analar va diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish esa uning samaradorligini oshiradi. O'zbekistonda bioetika rivojiga jamiyatning ma'naviy muhitini ham muhim omil sifatida ko'rish mumkin. O'zbek xalqiga xos bo'lgan mehr-shafqat, kattalarga hurmat, kasallarga g'amxo'rlik, oilaviy birdamlik kabi qadriyatlar bioetikaning gumanistik mohiyatiga mos keladi. Shu sababli bioetika tamoyillarini joriy etish jamiyatda qarshilikka emas, aksincha, ichki ma'naviy ehtiyojga tayanadi. Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, ayrim hollarda shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarda hanuz paternalistik yondashuv ustunlik qilishi mumkin. Bemorning qarorini to'liq hurmat qilish, unga yetarli axborot berish, muolajalar haqida ochiq muloqot olib borish madaniyati hali hamma joyda bir xil darajada shakllanmagan. Bu esa bioetik madaniyatni

yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. [6]. Shuningdek, O'zbekistonda bioetika bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni va sifati ham yetarli darajada emas. Bioetika mustaqil falsafiy yo'nalish sifatida hali keng qamrovli akademik maktabga ega bo'lib ulgurmagan. Bu sohada monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalarini ko'paytirish, xalqaro tajribani o'rganish va milliy konsepsiyani shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Falsafiy jihatdan O'zbekistonda bioetika rivoji milliy o'zlikni saqlagan holda, global bioetik tamoyillar bilan uyg'unlashishi zarur. Bu jarayon "ko'chirma model" asosida emas, balki ijodiy va tanqidiy yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Bioetika O'zbekiston jamiyatida inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiluvchi mustahkam axloqiy institutga aylanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bioetikaning shakllanishi huquqiy islohotlar, tibbiy amaliyot, ta'lim tizimi va milliy ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida rivojlanib bormoqda. Bioetika bu jarayonda nafaqat tibbiyot sohasining, balki butun jamiyatning axloqiy madaniyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Abdullaeva M.N. Tibbiyot falsafasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
3. Mukhamedova Z.M. Bioetika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent davlat stomatologiya instituti, 2018.
4. Shodmonova G.D. Bioetika: muammo va yechimlar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2010.
5. To'lenova K.J. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning o'rni. – Toshkent: Noshir, 2015.
6. Nigmatov A.S. Ekologik etika va bioetika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2012.
7. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. – Oxford University Press, 2019.
8. Singer P. Practical Ethics. – Cambridge University Press, 2011.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).